

mp

Eng ko'p sotilgan  
kitoblar

"Atom odatlar"  
Jeyms Klir 48 000  
so'm

"Qo'rqma"  
Javlon Jovliyev 32 000  
so'm

"Factfulness"  
Hans Rosling 60 000  
so'm

# YOSHLAR OVOZI

## BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 9 (1646 2)  
2022-yil, 5-mart  
shanba

[/yoshlarovoziuz](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Yoshlar siyosati**  
3-bet 8-mart - Xalqaro  
xotin-qizlar kuni

**Infografika**  
6-bet Mahalladagi yoshlar  
yetakchisining vakolatlari

**Mutolaa**  
7-bet Yangi loyiha:  
Birga o'qiyimizmi?



## O'ZBEKISTON YOSHLARI HAYOTIDAGI TARIXIY QAROR

Intervyu  
2-bet  
→

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-qarori /2022-yil 19-yanvar/ yoshlar hayotida yangi sahifa ochdi.

# YOSHLARNING BO'SH VAQTI - YETAKCHINING ISH VAQTI



## Mahalladagi yoshlar yetakchisining eng asosiy vazifalaridan biri "Yoshlar balansi"ni shakllantirish.

"Yoshlar balansi" 6 ta (5+1) yo'nalishda yuritiladi. Jumladan, 0-30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning:



Qo'shimcha 1 ta yo'nalish bo'yicha mahallalarda zarur infratuzilma va ijtimoiy obyektlar mavjudligi, holati va qamrovi yuzasidan ma'lumotlar shakllantiriladi.

## DASTLABKI O'RGANISH NATIJALARI

Ayni kungacha respublika bo'yicha

**17 million 282 ming 159** nafar yoshning dastlabki ma'lumotlari shakllantirildi.

**639 ming 359** nafar yosh tadbirkor, fermer, hunarmand va o'zini o'zi band qilgan.

**2 mln. 90 ming 894** nafar yosh davlat va xususiy sektorda rasman ish bilan band.

**3 mln. 459 ming 712** nafar yosh boshqa turli soha va tarmoqlarda band.

**10 mln. 662 ming 716** nafar yosh ta'lim bilan qamrab olingan.

**399 ming 868** nafar yosh ishsiz ekani aniqlangan.

"Yoshlar balansi" asosida har bir mahallada "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturi" shakllantiriladi. "Yoshlar daftari" orqali ishsiz, ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlashga muhtoj hamda iqtidorli yoshlarga tizimli yordam ko'rsatiladi. "Yoshlar dasturi" ular-

ning bo'sh vaqlarini mazmunli tashkil etish, yoshlar obyektlarini zarur jihoz va inventarlar bilan ta'minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

Birinchi navbatda 16-30 yoshdagi aholi qatlami bilan tizimli ishlar tashkil etiladi.

Millat genofondining oltin zaxirasi, deya ta'riflanayotgan yoshlar uchun deyarli har kuni yangi imkoniyatlar taklif etilmoqda. Bu esa barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonning poydevorini yanada mustahkamlash, yoshlarning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi. Shu maqsad yo'lida yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari joriy etilmoqda.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yaxlit vertikal boshqaruv tizimi yaratilib, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Yangi tizimdan asosiy maqsad nimalardan iborat? Bunday lavozimni joriy etishga qanday ehtiyoj bor edi? Shu va boshqa savollar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, Oliy Majlis Senati a'zosi Alisher SA'DULLAYEVga bir nechta savollar bilan murojaat etdik.

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati tashkil etildi. Bu lavozimni tashkil etishning zaruratlari, afzalligi nimada deb o'ylaysiz?

– Mamlakatimiz yoshlari hayotini yaxshilash, jamiyatda o'z o'rnini topishi, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lib shakllanishi, iste'dod va iqtidorini to'la namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda, – dedi Alisher SA'DULLAYEV. – Muhtaram Prezidentimizning bu qarori boshlagan ishlarimizning mantiqiy davomi, aniqrog'i, agentligimizning quyidagi muhim bo'g'inidir. Endi pastdan tepaga chiqadigan tizim mukammal bo'ldi. Yoshlar muammolarini mahallaning o'zida o'rganib, uni to'rt bosqichda: mahalla – tuman – viloyat – respublika darajasida hal etadigan yaxlit vertikal boshqaruv tizimi yaratildi.

Shu aniq mexanizm orqali har bir yoshning xonadoniga kirib borib, ular bilan samimiy aloqa o'rnatamiz. Qaror tom ma'noda har bir yoshning taqdiriga daxldor. Nega degan savol berilganda, shuni aytardimki, har birimiz mahallada yashaymiz, shu hududning bir a'zosi. Biz bilan tizimli ishlaydigan, xonadonbay, uyma-uy yurib, muammolarimizni shu joyning o'zida hal etadigan, ya'ni ovozimizni eshitadigan vakolatli shaxs – mahallada yoshlarning vakili bo'lishi shart edi. Bu masala davlatimiz rahbarining qarori bilan o'z yechimini topdi.

– Yoshlar yetakchisi lavozimini tashkil etishda ijtimoiy-maishiy sharoitlar qanchalik hisobga olingan? Misol uchun, hamma mahallalarda sharoit bir xil emas...

– To'g'ri, shahar mahallasi bilan tuman, qishloq yoki ovullardagi sharoitning o'rtasida tafovut bor. Ammo har bir yosh imkoniyatlardan teng foydalanishga haqli! Mahalladagi yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilishida shunday ulkan maqsadlar inobatga olingan. O'lis hududlarda qanchadan qancha yosh iste'dodlar, qobiliyat egalari o'tibor qaratilmagani, rag'batlantirilmagani uchun ular o'sha joyning o'zida qolib ketyapti. Biz ular bilan ishlashimiz, rivojlantirishimiz kerak. Vaqt va sharoit kutsak, yutaqamiz.

Qarorda mahalla yoshlar yetakchisiga belgilab berilgan asosiy oltita yo'nalish bu tafovutlarni chippakka chiqaradi, deb o'ylayman. Deylik, sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish yo'nalishida mini-futbol, voleibol, basketbol, stol tennis, velosport, yugurish, shax-

mat, shashka, badminton, kamondan o'q otish bo'yicha musobaqalar, salomatlik uchun 5 ming qadam yurish marafoni hamda "Yosh ekolog" aksiyasini o'tkazish uchun maxsus sharoit talab etilmaydi. Yoki bo'lmasa, ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish uchun "Zakovat" musobaqasi, "Quvnoqlar va zukkolar", "Zukko kitobxon", "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Xarrijiy tillar bilimdoni" va "Yosh poliglot" tanlovlari, "Munozara" intellektual va milliy xalq o'yinlarini tashkil etishda ijtimoiy-maishiy sharoit rol o'ynamaydi. Tadbirkorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlash borasida "O'zbekiston uchun 100 g'oya" va "Mahallaning ishbilarmon tadbirkori", "Biznesga birinchi qadam" grant loyihalari va tanlovlari o'tkazish uchun ham hech qanday to'siq yo'q.

**– Yoshlar ishlari agentligi yosh kadrlarni tayyorlash va ular uchun "ijtimoiy lift" vazifasini bajarishni qanchalik uddalay olyapti, deb hisoblaysiz?**

– Agentlik tizimida teran fikrli, sarohiyatli, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladigan yosh kadrlar ishlarida. Ular kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritmasin, o'z ishining eng zo'r mutaxassislari bo'lishiga shubham yo'q. Bu tizimda ishlab, yuqori lavozimga tayinlanayotganlar soni kundan kunga ortib borayotganini bizga bildirilgan ishonchning mevasi deb bilaman.

Misol tariqasi-da keltiradigan bo'lsak, Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlagan Abatbay Daniyarov shu yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari etib tayinlandi. Yaqindagina Agentlikning markaziy apparati tizimida kadrlar masalasida katta o'zgarishlar bo'ldi. Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari Sarvar Ashurov Vazirlar Mahkamasining Yoshlar, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash masalalari kotibiyati mudiri, yana bir o'rinbosarimiz Farruh Omonov Prezident administratsiyasida sho'ba mudiri lavozimiga tayinlandi. Agentlikning bo'lim boshlig'i lavozimida ishlagan polkovnik Otabek Yo'ldashev O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti boshlig'i sifatida faoliyatini davom ettirmoqda.

**– Mahallada yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi va xotin-qizlar faoli lavozimlarining joriy etilishi o'zini o'zi bosqarishning milliy shakli bo'lgan mahalla institutiga yangi qiyofa, mazmun baxsh etdi, shunday emasmi?**

– Bilasizmi, Prezidentimiz tashabbusi bilan asos solingan va uchta lavozimga bir-birini to'ldiruvchi alohida funksiyalar birlashtirilgan. Misol uchun, hokim yordamchisi – mahallada kambag'allikni qisqartirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga e'tibor qaratadi. Yoshlar yetakchisi yoshlar siyosati va mahallada yoshlar balansini shakllantiradi. Xotin-qizlar bo'yicha mas'ul mahalladagi ayollar masalalari va ularning dard-u tashvishi bilan ishlashga birlashtiriladi. Eng muhimi, bu uchta yo'nalish bo'yicha ularning aniq moliyaviy mablag'lari bo'ladi.

Mahalladagi aholining ko'pchiligini yoshlar tashkil qiladi. Ish, mehnat va o'qish bilan band bo'lmagan yoshlar ham talaygina. Ayniqsa, yoshlar yetakchisi ular bilan ishlash uchun boshqa kasb egalarida bo'lmagan fazilatlari: kirisuvchanlik, yoshlarni yo'naltira olish, motivatsiya berish, ortidan ergashtirish salohiyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki mahalla yoshlari yetakchi bilan erkin, muammolariga yechim topish ohangida muloqot qilishi lozim.

Bunday o'zgarishlar har bir viloyatda, tuman (shahar)lar kesimida bor. Qaysidir ma'noda bu yosh kadrlarimiz boshqalardan ajralib turibdi, davlatimiz kelajagi uchun umid beryapti. Demak, agentlikdagi "ijtimoiy lift" degan tushuncha qog'ozda qolib ketmayapti va bu tinimsiz mehnatlar samarasi ekani yaqqol ko'rinib turibdi.

**– Agentlik va bevosita sizning tashabbusingiz bilan hayotga tatbiq etilgan "Talabaga madad", "Cheksiz ijod – cheksiz imkon" kabi loyihalar jamoatchilik tomonidan juda yaxshi kutib olindi. O'ylaymanki, bu loyihalarning samarasi ham yaxshi bo'lyapti.**

– Biror-bir loyihaning yuzaga kelishi hamda joriy etilishi uchun, albatta, kimdir yoki nimadir sabab bo'ladi. So'nggi paytlarda agentligimizga bilimli, iqtidorli talabalardan to'lov-shartnoma pullarini to'lashda qiyinchiliklar bo'layotgani haqida murojaatlar kelib tushishi yangi loyiha yaratilishida turtki bo'ldi. Loyiha agentlik tashabbusi va mahalliy hokimliklar ko'magi bilan amalga tatbiq etildi. Moddiy muammolarga duch kelayotgan, boquvchisini yo'qotgan, ota-onasi (yoki ularning biri) nogiron, Mehribonlik uylari bitiruvchilari, yosh oila,

"ijtimoiy himoya" yagona reyestriga kiritilgan oila farzandlari kabi toifalarga mansub talaba-yoshlarning o'qishi uchun shartnoma pullari to'lab berilmoqda.

Madad olish istagida murojaat qiluvchilar soni juda ko'p. Avvalo, ular joylarga chiqib o'rganiladi, shundan so'ng mahalliy hokimliklar bilan birgalikda yordamga kirishamiz. Maqsadimiz haqiqatan moliyaviy muhtoj, bilimli yoshlarga ko'mak berishdan iborat. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Hozir ko'plab yoshlar shu loyiha ko'magida o'qishlarini muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Aniq raqamlarga kelsak, 2021-2022-o'quv yilida 5 883 nafar yoshning to'lov-shartnoma pullari qoplab berildi.

Endi "Cheksiz ijod – cheksiz imkon" loyihasi haqida. Dastlab imkoniyati cheklangan ijodkorlar o'rtasida ijodiy tanlov o'tkazildi. Nazm, nasr, publiksistika yo'nalishlarida qalam tobratuvchi 235 nafar imkoniyati cheklangan yosh orasidan 23 nafari saralab olinib, ularning ijodiy ishlari to'plam holda chop etildi. Loyihaning maqsadi imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning iqtidorini yuzaga chiqarishdan iborat edi. Qaysidir ma'noda loyihamiz orqali ijodkorga ilhom bag'ishladik. Bunday xayrli loyihalarimizni davomli qilish niyatidamiz.



# mart

## Xalqaro xotin-qizlar kuni




**Javlon JOVLIYEV, yozuvchi:**

– Ilm almaq – ayol-u erkak uchun birday farz. Ammo aksariyat oilalarda qizlar ta'limi ikkinchi darajali ish deb qaraladi. Shu bois doim faqat qizlarni moddiy va ma'naviy qo'llaydigan ijtimoiy tuzilma kerak, degan fikrda bo'lganman.

Kuni kecha Prezident tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qizlar ta'limiga oid muhim o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, yangi o'quv yilidan boshlab oliy o'quv yurti, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun, ilk marotaba, 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi.

Yangi o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq budjetdan qoplab beriladi (23 ming nafar qizlarga 200 milliard so'm).

Har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan 150 nafar qizning (jami 2,1 ming nafar) ta'lim kontrakti mahalliy budjetdan qoplab beriladi. Yosh bolali talaba-qizlarga masofaviy o'qishga sharoit yaratiladi. Buni bayramga katta tuhfa, desa bo'ladi!



"Yoshlar ovozi" tanlovi



Mini-futbol, voleybol, shaxmat va shashka, stol tennisi va "Street workout" chempionati



Kibersport musobaqasi



"Mushoira va she'riyat" tanlovi



"Yosh kitobxon" tanlovi



"Zakovat" intellektual o'yini

# BESH TASHABBUS

O L I M P I A D A S I

	1 bosqich Mahalla	2 bosqich Sektor	3 bosqich Tuman (shahar)	4 bosqich Hududiy	5 bosqich Respublika
	7-12 mart	14-19 mart	20-30 mart	5-25 aprel	10-15 may
	14-19 mart	20-30 mart	1-15 aprel	1-15 may	1-15 iyun
	21-26 mart	1-10 aprel	18-23 aprel	16-25 may	16-20 iyun
	5-20 aprel	21-30 aprel	2-7 may	1-15 iyun	21-25 iyun
	10-30 mart	1-20 aprel	20-aprel 10-may	10-30 may	1-10 aprel 1-20 iyun

## BU MENING MAHALLAM!

**Ravshan QAMBAROV,**  
Toshkent shahar Mirobod tumani  
"Yangi Mirobod" MFY raisi:

— Har bir mahallaga yoshlar yetakchisi va hokim yordamchisining birlashtirilishi juda katta ish bo'ldi. Bu orqali ham ishimiz yengillashdi, ham mahalladagi yoshlarning muammolari shu hududning o'zida hal bo'ladigan bo'ldi. Endi mahalla raisining ikkita "qanoti" bor, bu "qanot"lar butun yoshlar masalalari bilan shug'ullanmoqda.

Bu lavozimga shu hududda yashab turgan yoshlardan saralab olingani ham mahallamiz yoshlarning real muammolari ko'rinishiga sabab bo'lmoqda. Bundan nafaqat biz, mahallamiz yoshlari ham juda xursand. Endi ular erta-kech ijtimoiy tarmoqlar bilan emas, o'z teng-qurlari bilan kitobxonlik, sport musobaqalari orqali bellashib, vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. Bir-birlari bilan yaqindan tanishib, turli sohalarda fikr almashmoqda.

To'g'risi, oxirgi paytlarda yoshlarning bir-biri bilan ishi bo'lmasdi. Hatto o'z mahalladoshini yaxshi tanimas ham edi-da. Ushbu lavozim mahallalardagi tarbiyasi og'ir yoshlar bilan alohida ishlash, ularning xohish-istaklarini o'rganish imkoniyatini bermoqda. Bu yo'lda ulardan katta mas'uliyat, fidoyilik talab etilmoqda. O'ylaymanki, yangi lavozim, albatta, o'zini oqlaydi.



**Tursunqul HUSANOV,**  
Sirdaryo tumanidagi "Hikmatli"  
mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Mening mahallamda 2035 nafar yosh bor. Ular bilan tanishib, suhbat qilganda 17 nafar ishsiz yosh borligini aniqladim. Hozir ularning 7 nafari ish bilan ta'minlandi. Qolgan yoshlarga ham o'ziga ma'qul keladigan ishlarni izlayapman. Imkonimiz boricha ularga yordam berishga bel bog'laganmiz.

Mahallamizda turli tadbirlarni tez-tez uyushtirib turibman. Avvaliga yoshlar bu tadbirlarda ishtirok etishga tortinishdi. Endi esa tezroq uy ishlarini tugatib, bo'sh qoldim deguncha sport musobaqalari, zakovat intellektual bellashuvlariga shoshilmoqda. Hozir zakovat bellashuvlarini tizimli ravishda o'tkazyapmiz. Bellashuvga yoshlarning ham qiziqishi baland. Ularni doimiy kitob sovg'asi bilan rag'batlantiraman. Shu orqali yoshlarda kitobga qiziqishni ham uyg'otaymiz. Yoshlar sport musobaqalarini ham sevadi. Yaqinda mahallamizda sport kompleksi qurib beriladigan bo'ldi. Buni tadbirkor yordamida qisqa muddatda bunyod qilamiz.

Mahallamizni erta-yu kech aylanib yuraman. Yoshlar bilan suhbatlashib ular uchun nima qiziqilgini bilishga harakat qilaman. Shu orqali yangi rejalar tuzaman. Qolaversa, yoshi katta kishilarning ham xatti-harakatini kuzataman. Mabodo ichib yoki chekib yurganini ko'rsam, ularga nega bunday qilyapsiz, axir yoshlar sizlardan o'mak oladi-ku, deya o'z munosabatimni bildirishdan ham qaytmayman. To'g'ri-da, axir biz, yoshlar kattalardan ko'rib xulosa chiqaramiz!

## BU MENING MAHALLAM!

### Gulchehra ABDULLAYEVA, Jizzax shahridagi 29-maktab direktori:

— Yetakchilarining maktablardan mahallaga o'tishi juda yaxshi tashabbus bo'ldi. Chunki shu vaqtgacha ular faqat maktab o'quvchilari bilan ishlagan bo'lsa, endi mahalladagi barcha yoshlarni atrofida birlashtirayapti. Bu haqda gapirganda bir jihatni alohida e'tirof etmoqchiman. Bugun yoshlar yetakchilari mahalla raislari bilan birgalikda ishlab, hududlardagi muammolarni o'rganyapti. Yurtdoshlarimiz masalalarini hal etish choralarini izlayapti. Yetakchilarning bugungi faoliyati ular uchun juda katta hayotiy maktab bo'ladi. Shu jarayonlarda toblangan yoshlar kelajakda mahalla va mahalliy hokimliklarda bundan ham katta mas'uliyatni zimmasiga olganida qiynalib qolmaydi. Ish o'rganish uchun vaqt sarflamaydi. Bu ham yoshlar kelajagi uchun yaxshi bir qadam.

### Dilyor ERGASHEV, Quva tumanidagi "Akbarobod" mahallasi profilaktika inspektori:

— Biz 24 soat ish rejimida bo'lishimizga qaramasdan mahallaning barcha yoshlarini qamrab ololmasdik. Mana endi yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilingach, ular barcha yoshlarni xatlovdan o'tkazdi. Endi ularda har bitta yosh haqida asosli ma'lumotlar bor. Shu asnosida ular bilan ish rejalar tuzib oldik. Yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda har bir mahalladagi maktablarda bittadan huquq targ'ibot xonalari, yo'l harakati xavfsizligi xonalarini tashkil etildi. Bu yoshlarning huquqiy bilim saviyasini oshirishga katta yordam berayapti.





### Ulbo'isin MAMBETOVA, Qo'ng'iro't tumanidagi "Ming-jarg'an" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— O'zim yosh bo'lsam-da, maqsadlarim ulkan. Avvalo, mahallamizda tadbirkor yoshlarni ko'paytirish va bu orqali ish o'rinlari yaratishga harakat qilyapman.

Hozir oldimga ko'pchilik yoshlar yangi fikr va takliflar bilan kelyapti. Kimdir zardo'zlik qilaman deydi, yana biri kashtachilik. Yigitlar kichik biznesga qiziqish bildirmoqda. Bularning hammasini e'tiborga olyapman. Qizlarni tikuvchi, kashtachilarga shogirdlikka berib, yigitlarga sartaroshlik, hunarmandchilik, savdo obyektlariga birkiriyapmiz.

Sport musobaqalari, kitobxonlik va zakovat bellashuvlari ham uzluksiz olib borilmoqda. Mahallamizda tadbirkorlar tikuv sexi, fitnes klub, sport maydonchalari qurishni boshlab yubordi. Chetdan kuzatib mahallamizdagi o'zgarishlardan shaxsan o'zim ham suyunib ketyapman.



### Qudrat TOSHMATOV, Bektemir tumani, "Bektemir" mahallasi nuroniysi:

— Mahallamizda yoshlar yetakchisi saylangandan keyin "Yoshlar nuroniylar e'tiborida", "Bir nuroniya o'n nafar yosh", "Kexsa avlod uchrashuvlari" loyihalari asosida muntazam ishlar amalga oshirilmoqda. Menga ham 10 nafar yosh birkirtilgan. Ular probatsiya hisobida turuvchi, ishsiz, tarbiyasi og'ir yoshlar bo'lib, ular bilan muntazam ishlayapmiz.

Yoshlar yetakchisi Dilafroz Bahromovning tashabbusi bilan mahalla idorasida tashkil qilingan shashka va shaxmat to'garagiga o'zim ham bosh-qosh bo'lib turaman. Bundan tashqari mahallada istiqomat qiluvchi 16-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar bilan muntazam ishlayapmiz.

Bizga yoshlar bilan ishlash topshirilganidan so'ng, hududimiz yoshlarining har bir harakatiga e'tibor beradigan bo'ldik. To'g'risi, avvallari yoshlarga dakkli bersak, qanday qabul qiladi, nima deb javob qaytaradi degan hadigimiz bo'lardi. Endi bu bizning burchimiz degan qat'iy fikrda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatyapmiz. Yoshlar ham buni to'g'ri qabul qilmoqda.



### Bektursin YO'LDOSHEV, Gurlan tumanidagi "Nukus" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Avvallari yoshlar yetakchilari faqat maktab o'quvchilari bilan ishlar edi. Yangi tizim sabab ular mahallaning barcha yoshlari bilan ishlash imkoniga ega bo'ldi. Endi har bir yosh o'zini qiynayotgan muammoni, taklifini kimga aytishni biladi.

Mahallada yoshlar yetakchisi bo'lib ishlay boshlaganimdan hududdagi har bir yosh bilan yaqindan tanishishga astoydil harakat qildim. Hozir ular bilan bir oiladagi aka-ukalarday muomalada bo'lishga urinyapman. Hozirgacha ikki nafar yoshga ish topib berishga ulgurdim. Endi boshqa tengdoshlarimiz bandligini ham ta'minlashimiz kerak. Shu kunlarda yana 10 dan ziyod yoshlar dehqonchilik qilish uchun ariza topshirgan. Ular uchun yer ajratilishi kutilyapti.

Quvonarlisi, butun bir vazirlik, idora va tashkilotlar, sektor rahbarlari bizga ko'mak berish uchun bitta tizimga birlashdi. Biz mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni ish bilan ta'minlash, tengdoshlarimizga hunar o'rgatib, shu orqali jinoyatchilikning oldini olish uchun birlashganmiz.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-qaroriga binoan, "Yoshlar daftari" tizimidagi quyidagi **imtiyozlar** mahalladagi yoshlar yetakchilari tavsiyasi asosida beriladi:




Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bazaviy hisoblash miqdori /BHM/ning **4 baravarigacha** bir marta-lik moddiy yordam ko'rsatish.



Ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga **12 oygacha** turar joy ijarasi kompensatsiyasini qoplash uchun har oyda BHMning **3 baravarigacha** subsidiya ajratish.



Psixologik maslahatga muhtoj yoshlarga pullik psixologik xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun subsidiya ajratish.




Mamlakatdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidorli yoshlar to'lov-kontrakt summasining **50 foizi**gacha qismini qoplash uchun BHMning **50 baravarigacha** subsidiya ajratish.



Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatni o'tash badalini to'liq qoplash uchun subsidiya ajratish.



Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o'quv kursi xarajatlarini qoplash uchun BHMning **4 baravarigacha** subsidiya ajratish.



Ijtimoiy himoyaga muhtoj yangi turmush qurayotgan yosh oilalarga o'z xonadonda qo'shimcha uy-joy qurishi uchun **33 million** so'mgacha garovsiz bank krediti ajratish-ga kafillik berish.




Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun subsidiya to'lashda alohida namuna ko'rsatayotgan yosh oilalar toifasiga mansubligi bo'yicha tavsiya berish.




Sport to'garaklarini tashkil etish uchun mahallada bo'sh turgan davlat mulki hisoblangan bino va inshootlar elektron savdolar o'tkazmagan holda, ushbu obyektga nisbatan belgilangan eng kam ijara to'lovi stavkasining **50 foizi** miqdorida ijaraga berish.



Ahvoli og'ir bo'lgan **30 yoshdan** oshmagan bemor fuqarolarga mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun BHMning **50 baravarigacha** subsidiya ajratish.



Yoshlarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarining **50 foizi**, biroq BHMning **5 baravarigacha** qismi hamda ular bo'yicha milliy sertifikatlar olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplab berish.



Nogiron yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga o'rgatish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish, zarur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun BHMning **50 baravarigacha** subsidiya ajratish.



Nogiron yoshlarga kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, tadbirkorlik va kasb-hunarga o'rgatish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan hamda maxsus sertifikatni olgan, tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganlarga asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun BHMning **50 baravarigacha** subsidiya ajratish.

**Xulosa taqdim etiladi:**



"Yoshlar daftari" jamg'armasi Vasiylik kengashiga



Yoshlar ishlari agentligiga



Yoshlar ishlari agentligining tuman /shahar bo'limiga

# BIRGA O'QIYMIZMI?

Diqqat,  
yangi  
loyiha!

Kitobxon yoshlarni qo'llab-quvvatlash va kitobxonlikka targ'ib qilish maqsadida yangi loyihaga start beramiz!

Loyihada siz mutolaa qilgan yoki o'qishga ulgurmagan o'zbek hamda jahon adabiyotining eng sara namunalari, ular haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishishingiz, muhimi, har bir asar haqida tuzilgan savolli viktorinamizda ishtirok etib, o'z bilimingizni sinab ko'rishingiz mumkin.

Darvoqe, hamma savollarga to'liq va to'g'ri javob yo'llagan kitobxon ishtirokchilar tahririyat tomonidan maxsus sovg'a bilan taqdirlanadi.

"O'sha mashhur she'r, unga ishlangan qo'shiqlar va sevimli qissa..."

O'n sakkizga kirmagan kim bor,  
Bog'ingdan gul termagan kim bor?  
Sen haqingda yozib to'rt satr,  
Sirdoshiga asta ko'rsatib,  
Qo'shni qizga bermagan kim bor?

1959-yil, Toshkent.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning talabalik yillarida yaratgan she'ri o'z vaqtida va hozir ham sevib o'qiladi.

Keyinchalik ustoz qo'shiqchilardan Abdumutalib Mirza, Faxriddin Umarov, bugungi kunning yosh, umidli ovoz sohibalaridan Nargiz, yaqindagina esa Afruzda ijrosida qo'shiq bo'lib yangragan bu she'r 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lganlar uchun birdek qadrdon, ko'pchiligimiz so'zlarini yoddan bilamiz, eshitib qolsak jo'r bo'lib, xirgoyi qilamiz. Shoironing bu ijod mahsuli keyinchalik, 1965-yilga kelib havaskor va yosh bir yozuvchini qissa yaratishga ilhomlantirdi.

Kutilmaganda 25 yoshli yozuvchiga katta shuhrat keltirgan bu qissa, oradan yarim asr vaqt o'tgan bo'lsa-da, yoshlarning eng sevib o'qiydigan asarlari orasida o'z o'rnini yo'qotmay kelmoqda.

Demak, tanishing!

Qissa hajm, ishtirok etuvchi obrazlar jihatidan u qadar katta emas. Ammo qalamga olingan ijtimoiy muammolar uning yukini oshirib beradi. Bu yukni his etish uchun, avvalo, obrazlar bilan yaqindan tanishib olsak.

Umida. Qadim zamonlardanonq donishmandlar ayol qalbini hech qachon tushunib bo'lmäs tilsimga qiyoslagan. O'tkazilgan bir qator tekshiruv va tajribalardan shu ma'lum bo'ldiki, erkaklarga qaraganda ayollarda qasoskorlik hissi, o'ch olish ishtiyoqi kuchliroq ekan. Donishmandlarning xulosasi va olimlarning kuzatuvlari qanchalik to'g'ri ekanini shu obrazda sezish qiyin emas.

Bu yosh yozuvchining mahorati yuqori ekanini ko'rsatadi. Umida esa hamma qizda ham uchrayvermaydigan xarakter sohibasi. Uning xarakteri shakllanishida sevib o'qiydigan pyesalaridagi qahramonlar ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Tilov – sodda, biroz to'pori, ammo yuragida birovgga yomonlikdan zarracha ham asar yo'q. Qissa davomida u bolaligi o'tgan, xotiralari qolgan ona dashtini ko'p bor eslaydi, sog'inadi.

Jamshid – yosh bo'lishiga qaramay o'zga-cha fikrlovchi, zehni o'tkir obraz.

Qissada uning har bir ishga mas'uliyat va aql bilan yondashishi seziladi.

Zebixon, uning onasi, Jalolov kabi obrazlar ham ko'pgina kulminatsion nuqталarda ko'zga tashlansa-da, asosiy voqealar yuqoridagi uch nafar asosiy obraz atrofida kechadi.

60-yillar yoshlari hayotidan hikoya qiluvchi qissa qahramonlari bilan XXI asr yoshlari o'rtasida qanday o'xshashlik va farq bor? Umuman zamonamiz yoshlarining qissa qahramonlari haqidagi fikrlari qanday?

## "E'TIROZIM BOR"

Davlatbek, TDPU talabasi:

– Hayotda Umidaga o'xshash qizlarga duch kelishni aslo istamagan bo'lardim. U hatto asar so'ngida ham adolatsiz yo'l tutadi. Undagi xudbinlik, qasoskorlik ko'zlarini ko'r qilib, boshqalarning osuda hayotiga ham ta'sir o'tkazadi. Shu o'rinda unga jiddiy e'tirozim bor, nafaqat o'zining, boshqalarning hayotiga ham o'yindek qarash juda noto'g'ri ish. Tilovning sof tuyg'ulari bilan o'ynashgani, ko'nglini chilparchin qilgani sabab ham uning baxtli bo'lishga haqqi yo'q deb o'ylayman.

Bunday yoshlar bugun ham oramizda uchrab turadi, ijtimoiy tarmoqlar, o'yin-kulgi, o'tkinchi hoy-u havasga berilib, kelajak yo'lida juda katta xatoga yo'l qo'yishganiga, afsuski, guvoh bo'lib qolyapmiz...

## "18 YOSH KATTA DEGANI EMAS"

Noiba,

Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona foydalanuvchisi, 19 yosh:

– Qissani ikki yilcha avval o'qib chiqqan edim. Menda juda g'alati taassurot qoldirgan. O'shanda 17 yoshda edim, oradan o'tgan vaqt qarashlarimni sezilarli o'zgartirdi. 18 yoshidayoq oila qurishga shoshilgan tengdoshlarimga qarab, qissa qahramonlari esimga tushgan vaqtlar ham bo'lgan.

Hali bolalik, aniqrog'i o'smirlik bilan to'liq xayrlashib ulgurmagan yoshlar ayni shu yoshda o'zlarini nazorat qilishi biroz qiyinroq bo'lib qoladi. "Endi katta odamman" degan o'y ortidan ba'zan, xatolar ham qilib qo'yishadi.

Aytmaqchimanki, 18 yosh qissadagi Zaynabxon Tilovga aytganidek juda mas'uliyatli davr. Oilalardagi ajrimlarning ko'pi erta turmush qurish oqibatida sodir bo'layotganini hisobga olib, bu vaqtda yoshlar ota-onasi yoki ustozlari bilan maslahatlashgan holda qaror qabul qilishlarini istagan bo'lar edim.

## O'qing, uqing, savollarga javob yo'llang va mukofot egasiga aylaning!!!

Endi esa, oramizda asarga qiziqib qolgan va hali o'qib chiqishga ulgurmagan yoshlarni mutolaa undaymiz. Nafaqat o'qib, balki uqib, savollarimizga to'g'ri va to'liq javob berib, tahririyat sovg'asiga ega bo'lishdek imkonni qo'ldan chiqarmang!

Savollarimiz:

1. Qissa bosh qahramonlaridan biri Umidaning onasining ismi nima edi?
2. Asardan: "Bir kuni tanaffus mahali Jamshid Mansurning qandaydir kitobchani qiziqib varaqlayotganini ko'rib qoldi. Kitobning muqovasida bir kampirni quvib borayotgan ajdarho rasmi solingan, uning tagiga ..... deb yozib qo'yilgan edi". Nuqtalar o'rniga kitobning nomini yozing.
3. Qissada qaysi tarixiy va badiiy asar qahramonlarining nomi keltiriladi?
4. Qissada "shaharga o'rgangan", "zerikarli joy ekan deb ketib qolgan ablah" kim edi?
5. Jumlaning davom ettiring va muallifini toping:  
– Men yashash istayman, istayman g'amni...
6. Tilov qancha muddatga harbiy xizmatga chaqirildi?
7. "Bu bo'lsa, shoir bo'ladi", Asardagi Zaynabxon shunday deganda kimni nazarda tutdi?
8. Qissada nomi tilga olingan, "Shu yil armanchadan tarjima qilingan" asar?
9. Sinf rahbari Hojjiyev boshchiligidagi o'quvchilar qayerga archa kesishga borishdi?
10. Jalolovning ishonasi qayer edi?

Loyiha muallifi Ziyoda RAHIMBOYEVA.



## TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI URGANCH FILIALI JAMOASI

*Barcha yurtdoshlarimiz, jumladan, dilbar  
ayollarimizni yasharish va yangilanish fasti —  
bahor ayyomi hamda*

*8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan  
muborakbod etamiz!*

*Sizlarga mustahkam sog'lik, bahoriy  
xushkayfiyat doim yor bo'lsin!*



**YOSHLAR  
OVOZI**

Bosh muharrir:  
**Hamza ABDULLAYEV**

Muassis:  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

Navbatchi muharrir:  
**Iqbol Pardayeva**

Musahhih:  
**Shahribonu  
Rahmatova**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida  
2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruxsatdan o'tgan.  
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifa-  
lanildi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.  
Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 238-79-95.

"Shara" nashriyat-matbaa, aksiyadorlik kompaniyasi bosma-  
xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq.  
Korxonamiz manzili: Buyuk Taron ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203.  
Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma: G-355, Adadi - 10350.  
Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish  
uchun QR-kodini  
telefoningiz orqali  
skaner qiling.



1 2 3 4 5 6